

Date: 19<sup>th</sup> February-2025

IQBOL MIRZONING ‘BONU’ ROMANIDA O’ZBEK QIZINING RUHIYAT  
TAHLILI

Ochilova Gulirano Otabek qizi

Buxoro davlat universiteti Adabiyotshunoslik (o’zbek)yo’nalishi

1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o’zbek adabiyotining o’tkir so’z sohibi Iqbol Mirzoning ‘Bonu’ romani tahlilga tortilgan. Xususan, unda o’zbek ayoli taqdiri, hayotining badiiy ifodasi bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** Iqbol Mirzo, kasallik, tuyg’u, sabr, ”Xo’ja Ubbon” maktub, bobo meros.

**Abstract:** In this article, the novel “Bonu” by Iqbal Mirza, a sharp lyricist of Uzbek literature, was analyzed. In particular, it describes the fate of the Uzbek woman, the artistic expression of her life.

**Key words:** Iqbal Mirza, illness, feeling, patience, letter” Khoja Ubbon”, inheritance of grandfather.

**Аннотация:** В данной статье к анализу был привлечен Роман “Бону” Икбала Мирзы, остроумного знатока узбекской литературы. В частности, в нем изложена судьба узбекской женщины, художественное выражение ее жизни.

**Ключевые слова:** Икбал Мирза, болезнь, чувство, терпение, письмо” Ходжа Уббон”, дедушка наследие.

O’zbek adabiyotida ayol obrazini yaratgan yozuvchi va shoirlar talaygina. Bu mavzuda qalam tebratmagan ijodkor bo’lmasa kerak. Islom dinida ayol azal-azaldan hurmat qozonib kelgan va adabiyotimizda ham yetarlicha o’rin egallagan. Ayollarning ichki kechinmalarini ifodalash va tasvirlash qiyindir. Ammo Iqbol Mirzo buni g’oyat maromiga yetkaza oladi. Ayol zoti tabiatan murakkab shaxs uning xohish-istaklarini payqab uning ruhiyatiga kirib asar yaratishni go’zal talqin etgan ijodkor desak ham bo’ladi. Iqbol Mirzo she’riyatida ham go’zal yozg’ichlarga duch kelamiz. ”Bonu” romaniga keladigan bo’lsak, bir ojiza, oddiy o’qimishli qiz taqdiri naqadar qiyinchilik, chigalliklarga boy va shu bilan birga bu qiyinchiliklar oldida alp yigitlar singari turib beradigan, or-nomusi birinchi o’ringa qo’yadigan mardlik sohibasi ko’rsatib berilgan. Roman umuman boshqacha uslubda, ya’ni Bonu tilidan yozilgan. Bosh obraz shu darajada oqko’ngil, sof ediki, ana shu oppoq qog’ozday ko’ngiliga bir zumda qora chiziqqlar tushadi. Asarda voqealar rivoji tubdan o’zgarib yanada kulminatsion cho’qqilarga erishadi. Asar boshida Yusuf ismli nomardga duch keladi, shu sababli nomi yomonga chiqib, ko’p shubha-gumonlar ostida yashaydi. Shundan so’ng boshiga tinimsiz og’ir kunlar kela boshlaydi. Otasining bevaqt o’limi, uning qaddini bukadi, biz bilamizki ota va qiz ortasidagi mehr muhabbatning eng oliy ko’rinishidir. Otasi bilan so’nggi vidolashuv onlarini o’qir ekansiz, beixtiyor ko’zingizdan yosh tomchilaydi. Eng alamlisi shuki, yolg’on sevgi bilan o’ziga bog’lagan Olmos uni kasalligidan xabar topib, yarim yo’lda



Date: 19<sup>th</sup> February-2025

tashlab ketadi. Bonu unga shu qadar ishongan ediki, unga bo'lgan tuyg'ulari barisi chin. Buni isbotini unga soxta tilla bo'lmagan uzukni bergan zamonida ko'rsak bo'ladi. Hech qanday gumonga bormay, balki sotuvchi aldagandir-deya hattoki, Olmosga ham bildirmay o'zi yangi tilla uzuk olgan tasviri bor. Bonuning naqadar oqila sofdil ekanligini shu o'rinda ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, Bonu Olmosdan ayrilgach, dunyo ko'ziga tor ko'rinadi hamma undan yuz o'g'irgandek tuyulardi. Lekin uni birgina inson o'z uyida kutardi u ham bo'lsa onaizori. Iqbol Mirzo bu asarda faqatgina mardlikni, sabr-bardoshni emas, balki o'zbek ayoli, ona mehrini ko'rsatib bergan. Rossiyada bo'lgan vaqtida onasiga yuborgan pullarini boshqa farzandlariga bo'lib bergani onaning naqadar keng ko'ngilli ekanligidan darak beradi. Yana bir o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, lo'lilarning uyida turgan vaqtdan uy egalarining qizlarini itlardan himoya qilgani, o'zbek ayolining boshqa millat vakillaridan ajralib turishi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Tabiiyki, Bonu oldida yana bir boshqa chet el fuqarosi ham bor edi. Aslida, kitobdagi holatlarning barchasi Bonu boshidan o'tkazmagan. Lekin bu voqealarga jamiyatimizdagi har bir ayol bittasiga ham duch kelgan bo'lishi mumkin. Roman shunchaki o'qilmaydi, yurakdan har bir o'qilgan so'z inson qalbiga kirib boradi.

Asarda bir necha o'rinlarda ibratli fikrlar, Huvaydo g'azallarida foydalanilgan.

-Ona barbir onada farzandim deydi. Hamma sendan yuz o'g'irganda ham yoningda qoladi.

-Odamzod bolasi ko'zlari ko'rgan narsanigina mavjud deb o'ylaydi.

Asarda ko'plab ijtimoiy muammolar ham ko'tarib chiqilgan. Bonu ishlagan maktab ahvoli, o'qituvchilar faoliyati yangilikni qabul qila olmasligi, men senga sen menga tegma deb yashashi ta'limga e'tibor holatlar bermasligi kabi ilm insonining

Tanangda og'riqni his etsang demak sen tirik jonsan,

O'zgalar og'rigin sezsang demakki, sen insonsan, insonsan.

Shu parcha orqali xuddiki Bonuning butun hayoti ko'rsatib berilgandek. U o'zi chet elda bo'la turib Shoira apaga yordam berdi, oilasini moddiy jihatdan ta'minladi.

Asarda faqatgina yashash uchun kurash emas balki jigarchilik tuyg'ulari ham yaqqol namoyon etilgan. Romanning kichik qismida bobosi meros qoldirgan ko'zachani akasi topib olib o'z ehtiyojlari uchun ishlatib yuborib tan olmasligi Bonu bu haqida bilsa ham ancha vaqtgacha bilmaslikka olib yurishi keyinchalik o'sha tangalardan hech bo'lmasa bir donasini berishni iltimos qiladi. Bu tangalar men uchun moddiy jihatdan emas balki, bobo meros edi deya, o'kinib yig'laydi.

Asarning so'ngi qismi kitobxonga yanada kuchliroq mehr uyg'otadi. Olmosning asl basharasi ochilgani kulminatsion nuqtasidir. Olmos shunaday puxta reja tuzadiki, sodda Bonu osongina ishonadi. Advokat ham shifokor ham o'zi ekanligi hech qanday saraton kasalligiga chalinmaganligi ayon bo'lishi kitobxon yuksak pafos bilan o'qiydi. Asardagi har bir voqeani sanab o'tsak bo'ladi o'qib tugatgandan keyin Bonuning taqdirini kitobxonning o'ziga xavola qiladi.

**Bonu bizga nimani isbotladi?!**



Date: 19<sup>th</sup> February-2025

1. Oliy darajada buyuk matonat egasi ekanligi,uning tub ildizida insoniylik tuyg'usi borligi
2. Insonning qadr-qimmati o'z yurtida bebaho bo'lib,o'z yurtida shoh o'zga yurtida gado ekanligini ...
3. Doimo xatoni o'zidan qidirishini qayerda xató qildim deb inson eng ,avvalo, xatoni anglashni..
4. Dardga chalingan zamonda hammasi Allohdan ekanligiga inson berilgan dardi uchun Xudoga isyon qilmaslikni...

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, Bonu ko'rgan kechirganlari oddiy tuyulsada bu qiyinchiliklar oldida,bu sinovlar oldida taslim bo'lmagani uning metindek irodasini,sabrini ko'rsatdi.Iqbol Mirzo "Bonu "romani orqali o'zbek ayoli siymosini yarata oladi desak,shak-shubhasiz,adashmaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Iqbol Mirzo "Bonu"278bet,Sharq nashriyoti Toshkent 2018;
2. Iqbol Mirzoning hamkasbi Munisa Ramazonova bilan 2023- yil 27 oktabrdagi suhbatdan foydalanilgan.
- 3.Iqbol Mirzo"Bonu" audio kitobdan va maktublardan
- 4.Zulfiya Qurolboy qizi" Mashaqqatli hayot so'qmoqlari"Nur kitoblar"nashriyoti Toshkent 2024
- 5.Rahmiddinova S. Z. et al. OMINA SHENLIKO "G "LINING" VIJDON AZOBI" ASARIGA TAQRIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 33. – №. 2. – С. 90-93.
- 6.Rahmiddinova S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 112.
- 7.Raxmiddinova S. Z., Bahromjonovna H. Z. USMON AZIM–ROST TUYG'ULAR KUYCHISI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2023. – Т. 26. – №. 1. – С. 3-6.
- 8.Rahmiddinova S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 31-36.
- 9.Rahmiddinova S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 142-146.

